



SOVET ITTIFOQIDA KOLLEKTIVLASHTIRISH SIYOSATINING SHAKLLANISHI VA AMALGA OSHIRILISHI (1920-1930-YILLAR)

Rustamova Nigina

Osiyo xalqaro universiteti

Tarix yo'nalishi I-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18164509>

ARTICLE INFO

Received: 31st December 2025

Accepted: 1st January 2026

Published: 6th January 2026

KEYWORDS

kollektivlashtirish, industrilashtirish, sovet agrar siyosati, don tayyorlash inqirozi, partiya ichidagi kurash, kolxoz va sovxozlar, davlat nazorati

ABSTRACT

Mazkur maqolada SSSRda 1920-yillarning oxiri va 1930-yillarning boshlarida amalga oshirilgan kollektivlashtirish siyosatining shakllanishi va amalga oshirilishiga ta'sir ko'rsatgan asosiy siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy omillar tahlil qilinadi. Kollektivlashtirish jarayoni jadallashtirilgan industrilashtirish strategiyasi bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqilib, partiya-davlat rahbariyati doirasidagi konseptual qarama-qarshiliklar va ularning agrar siyosatga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, kollektivlashtirishning sovet qishloq xo'jaligi tizimi va davlat-dehqon munosabatlaridagi o'zgarishlarga ta'siri xolis yondashuv asosida baholanadi.

1920-yillarning oxirida SSSR rahbariyati yangi iqtisodiy siyosatdan bosqichma-bosqich voz kechib, sotsialistik tizimni bevosita joriy etishga yo'naltirilgan siyosatni amalga oshira boshladi. Davlat hokimiyatining markazlashuvi va siyosiy barqarorlik kuchayishi sharoitida jadallashtirilgan industrializatsiya dasturi ilgari surildi. Shu bilan birga, iqtisodiyotda bozor munosabatlari unsurlarini cheklash, qishloq xo'jaligini sotsialistik asosda qayta tashkil etish hamda jamiyatda yagona mafkuraviy yo'nalishni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Mazkur jarayonlar davlat tomonidan iqtisodiy resurslarni safarbar etish, ijtimoiy tuzilmani qayta shakllantirish va sotsialistik rivojlanish modelini barpo etish zarurati bilan izohlangan.

Industrilashtirish siyosati hukmron partiyaning 1925 yil dekabr oyida bo'lib o'tgan XIV syezdida belgilab olindi. Yangi iqtisodiy siyosatdan voz kechilgach, industrilashtirishni amalga oshirish siyosiy rejimning qat'iylashuvi, ma'muriy-boshqaruv choralari kuchaytirish hamda davlat-reja mexanizmini joriy etish sharoitida ko'zda tutilgan edi¹. Shuningdek, mamlakatni industrilashtirish jarayonini qishloq xo'jaligini qayta tashkil etish bilan bir vaqtda olib borish rejalashtirildi. Jarayonlarning bir vaqtda amalga oshirilishi industrilashtirish uchun zarur bo'lgan katta moliyaviy resurslarni safarbar etish zarurati bilan izohlanib, bu mablag'larni dehqonlarni kolxozlarga birlashtirish orqali jalb etish osonlashadi deb hisoblangan.

Sanoat rivojlanishini katta miqdordagi moliyaviy mablag'lar hamda qurilishlar va ishlab chiqarish sohasiga keng ko'lamda ishchi kuchini jalb etmasdan amalga oshirish mumkin emasligi ayon edi. Vaziyat shundan iborat ediki, mamlakat hali mavjud zavod va fabrikalarni qayta qurish hamda yangidan barpo etilayotgan sanoat obyektlarini texnika bilan ta'minlash uchun zarur bo'lgan yetarli sanoat bazasiga ega emas edi. Shu sababli zarur uskunalarni, ayniqsa ommaviy miqyosda, xorijdan xarid qilish zarurati tug'ildi. Bu esa xorijiy valyuta mavjudligini talab qilar edi.

¹ Лельчук В. С. Индустриализация СССР: история, опыт, проблемы. – М.: Мысль, 1984. – С. 54.

Eksport tushumlarining asosiy qismi don, yog'och, mo'yna va boshqa xomashyo hamda tabiiy resurslarni sotish hisobidan ta'minlangan bo'lib, bu jarayonda don eksporti muhim o'rin egallagan. Shu munosabat bilan qishloq xo'jaligining tovarlilik darajasini oshirish eng muhim vazifalardan biri sifatida belgilandi. Mazkur muammoni hal etish faqat yirik, mashinalashtirilgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yaratish orqali mumkin ekani umumiy e'tirof etilgan edi. Biroq bunday ishlab chiqarishni shakllantirishning yo'llari va usullari masalasi atrofida keskin ilmiy va siyosiy munozaralar yuzaga kelgan.

Jadal sanoat rivojlanishini qishloq xo'jaligi hisobidan amalga oshirishni nazarda tutgan yondashuv tarafdorlarining ustun kelishi sovet dehqonchiligining keyingi taqdirini, shuningdek kollektivlashtirish jarayonining shakl va usullarini katta darajada oldindan belgilab berdi².

Yoppasiga kollektivlashtirishning boshlanishidan avval 1928-yildagi don tayyorlash inqirozi yuz berdi³. Ushbu qiyinchiliklar sanoatga yo'naltirilgan kapital qo'yilmalar hajmining oshishi bilan bog'liq bo'lib, bu holat pul emissiyasining kuchayishiga, sanoat tovarlari tanqisligiga, shuningdek donning xarid narxlarining pasayishiga olib keldi. Don tayyorlash davrida dehqonlar orasida ommaviy norozilik kayfiyatlari kuzatildi.

Shunga qaramay, 1927-yil dekabr oyida VKP(b) MK Siyosiy byurosi dehqonlarga nisbatan "favqulodda choralar"ni qo'llash, ya'ni ulardan don va pul mablag'larini majburiy tartibda undirish to'g'risida qaror qabul qildi⁴. 1928-yil yanvar oyida partiya Markaziy Qo'mitasi joylarga OGTU (maxsus organlar), militsiya, partiya va sovet organlarining o'n minglab xodimlarini, jumladan Siyosiy byuro a'zolarini yubordi. I. V. Stalin Sibirga safar qildi⁵.

Quloq xo'jaliklariga qo'shimcha soliqlar joriy etildi, dehqonlar davlat qarzlariga majburiy obuna bo'lishga undaldi; bu talab bajarilmagan taqdirda ularga tovarlar sotilmadi va tibbiy xizmatlar ko'rsatilmadi. Don mavjudligi aniqlangan hollarda dehqonlar hibsga olinib, don, chorva mollari, xo'jalik inventarlari va texnikasi musodara qilindi. Partiya xodimlari va qishloq sovetlari raislari tomonidan yetarlicha qat'iyat ko'rsatilmagan holatlar aniqlanganda, ular lavozimidan chetlatilib, sud javobgarligiga tortildi.

"Favqulodda choralar" don muammosini qisqa muddatda hal etishga imkon berib, shaharlar va armiya ehtiyojlarini ta'minlashga xizmat qildi. Shu bilan birga, Markaziy Qo'mitaning ushbu choralarni keyingi yilda ham davom ettirish rejalari oliy rahbariyat doirasida qarama-qarshi yondashuvlarning yuzaga kelishiga olib keldi. N. I. Buxarin, Xalq Komissarlari Soveti raisi A. I. Rikov hamda VSSPS raisi M. P. Tomskiy yangi iqtisodiy siyosatni saqlab qolish tarafdori bo'lib, favqulodda choralar va rekvizitsiya amaliyotiga ehtiyotkorona munosabat bildirdilar⁶.

N. I. Buxarin don yetishtirishdagi qiyinchiliklarning sabablarini boshqaruv qarorlaridagi nomutanosibliklar bilan izohladi. Unga ko'ra, don narxlarining past darajada belgilanishi, qishloqlarga sanoat tovarlari yetkazib berish hajmining yetarli emasligi hamda quloq xo'jaliklariga nisbatan soliq siyosatining cheklanganligi ushbu vaziyatni kuchaytirgan omillar sifatida namoyon bo'lgan. Shu bilan birga, favqulodda choralar dehqonlar orasida norozilik va qarshilik kayfiyatlarini keltirib chiqarishi mumkinligi qayd etildi.

I. V. Stalin hamda uning yaqin safdoshlari V. M. Molotov va L. M. Kaganovich sotsializmni barpo etishda bosqichma-bosqich, evolyutsion rivojlanish yo'lini maqsadga muvofiq deb

² Киселёв А. Ф. Новейшая история Отечества. XX век. – М.: Владос, 2002. – 336 с.

³ Проскурина Л. И. Сталинская коллективизация: дальневосточное крестьянство в первой половине 1930-х гг. XX в. // Россия и АТР. – 2022. – № 1. – С. 131-142.

⁴ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида / тузувчилар: М. Жўраев, Р. Нуруллин, С. Камолов ва бошқ.; тахрир хайъати: А. Азизхўжаев (раис) ва бошқ. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 326–349.

⁵ Павлова И. В. Поездка Сталина в Сибирь. Почему в Сибирь? // ЭКО. 1995. № 2.

⁶ Источник документа: Трагедия советской деревни. Коллективизация и раскулачивание. 1927—1939. Документы и материалы. В 5-ти тт. Т. 1. Май 1927 — ноябрь 1929. — М.: РОССПЭН, 1999.

hisoblamadilar⁷. Stalin N. I. Buxarin tomonidan don bilan bog'liq qiyinchiliklarning xo'jalik boshqaruvidagi kamchiliklar bilan izohlanishini ilmiy jihatdan asossiz deb baholadi. U inqiroz sababini asosan inqilobdan keyingi davrda bozorga chiqariladigan tovar don hajmining qisqarishi bilan bog'ladi.

1926–1927 yillarda yalpi don hosili deyarli urushdan oldingi ko'rsatkichlarga yetgan bo'lsa-da, tovar don hajmi urushdan oldingi darajadan qariyb ikki baravar kam bo'lib qolgan edi. Yuqori darajadagi tovarlilik asosan yirik xo'jaliklarga xos bo'lgan, biroq agrar islohotlar natijasida bunday xo'jaliklar tugatilib, pomeshchik va quloqlarga tegishli yerlar kambag'al va o'rta dehqonlar o'rtasida taqsimlandi. Bu jarayon yer egaligining maydalanishiga olib keldi hamda dehqon xo'jaliklari sonining 15–16 milliondan 24–25 milliongacha oshishiga sabab bo'ldi, yirik xo'jaliklar ulushi esa keskin kamaydi⁸.

Mazkur sharoitda Stalin don muammosini hal etishning asosiy yo'lini yakka tartibdagi xo'jaliklardan yirik jamoa xo'jaliklariga o'tishda ko'rdi. Kollektivlashtirish orqali bir tomondan ko'p millionli individual dehqon xo'jaliklarini sotsialistik xo'jalik tizimiga jalb etish, ikkinchi tomondan esa kolxoz va sovxozlarni davlat nazoratiga bo'ysundirish hamda ulardan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini zarur hajmda markazlashgan tarzda safarbar etish uchun institutsional sharoit yaratish ko'zda tutilgan edi.

Stalinchilar va buxarinchilar o'rtasidagi siyosiy qarama-qarshilik 1928 yil iyul oyida bo'lib o'tgan VKP(b) Markaziy Qo'mitasi Plenumida ham davom etdi. Mazkur davrda N. I. Buxarin L. B. Kamenev bilan norasmiy uchrashuv o'tkazib, I. V. Stalin bilan siyosiy kelishmovchiliklar mavjudligini bildirgan hamda Siyosiy byuro tarkibi masalasida muqobil qarashlarini bayon etgan. Ushbu uchrashuv mazmuni keyinchalik Stalinga ma'lum bo'ldi va u bundan partiya ichidagi siyosiy kurash jarayonida foydalandi.

1929 yil aprel va noyabr oylarida o'tkazilgan VKP(b) Markaziy Qo'mitasi Plenumlarida Buxarin, A. I. Rikov va M. P. Tomskiy fraksiyaviy faoliyatda ayblanib, ularning pozitsiyalari "o'ng og'ish" sifatida baholandi. "O'ng muxolifat" vakillari tomonidan matbuotda bayonot e'lon qilinganiga qaramay, ular barcha rahbarlik lavozimlaridan ozod etildi. Natijada Xalq Komissarlari Soveti raisi lavozimiga A. I. Rikov o'rniga V. M. Molotov tayinlandi.

Xuloso o'laroq aytadigan bo'lsak, 1920-yillarning oxiri va 1930-yillarning boshlarida SSSRda amalga oshirilgan kollektivlashtirish siyosati mamlakatni jadallashtirilgan industrilashtirish yo'liga o'tkazish strategiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan tizimli jarayon edi. Industrilashtirishni moliyaviy va resurs jihatdan ta'minlash zarurati qishloq xo'jaligi mahsulotlarini markazlashgan holda safarbar etishni talab qildi. Don tayyorlash tizimidagi inqirozlar, tovar don hajmining qisqarishi va eksport imkoniyatlarining cheklanganligi agrar sohani davlat tomonidan qat'iyroq boshqarish va qayta tashkil etish masalasini dolzarb qildi. Shu sharoitda kollektivlashtirish qishloq xo'jaligini sotsialistik asosda qayta qurish hamda davlat ehtiyojlari uchun zarur resurslarni barqaror ta'minlash vositasi sifatida qaraldi.

Mazkur siyosatning shakllanishi partiya rahbariyati doirasidagi konseptual qarama-qarshiliklar fonida kechdi. N. I. Buxarin boshchiligidagi guruh yangi iqtisodiy siyosat doirasida evolyutsion rivojlanish yo'lini taklif etgan bo'lsa, I. V. Stalin va uning tarafdorlari markazlashgan va tezkor choralarni ustuvor deb bildilar. Siyosiy kurash natijasida kollektivlashtirish keng ko'lamda amalga oshirildi, bu esa sovet qishloq xo'jaligining tashkiliy tuzilmasini tubdan o'zgartirib, davlatning agrar soha ustidan nazoratini kuchaytirdi. Umuman olganda, kollektivlashtirish SSSRda sotsialistik xo'jalik tizimini shakllantirish va industrilashtirish strategiyasini amalga oshirish jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida tarixiy ahamiyat kasb etdi.

⁷ Данилов В. П. Коллективизация: как это было // Страницы истории советского общества: факты, проблемы, люди. – М., 1989. – С. 228–253.

⁸ Вдовин А. И., Дробижев В. З. Рост рабочего класса СССР, 1917–1940 гг. – М., 1976. – С. 109.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Лельчук В. С. Индустриализация СССР: история, опыт, проблемы. – М.: Мысль, 1984. – С. 54.
2. Киселёв А. Ф. Новейшая история Отечества. XX век. – М.: Владос, 2002. – 336 с.
3. Проскурина Л. И. Сталинская коллективизация: дальневосточное крестьянство в первой половине 1930-х гг. XX в. // Россия и АТР. – 2022. – № 1. – С. 131-142.
4. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида / тузувчилар: М. Жўраев, Р. Нуруллин, С. Камолов ва бошқ.; тахрир хайъати: А. Азизхўжаев (раис) ва бошқ. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 326–349.
5. Павлова И. В. Поездка Сталина в Сибирь. Почему в Сибирь? // ЭКО. 1995. № 2.
6. Источник документа: Трагедия советской деревни. Коллективизация и раскулачивание. 1927—1939. Документы и материалы. В 5-ти тт. Т. 1. Май 1927 — ноябрь 1929. — М.: РОССПЭН, 1999.
7. Данилов В. П. Коллективизация: как это было // Страницы истории советского общества: факты, проблемы, люди. – М., 1989. – С. 228–253.
8. Вдовин А. И., Дробижев В. З. Рост рабочего класса СССР, 1917–1940 гг. – М., 1976. – С. 109.

